

*Sherov Alisher Bakberganovich, Toshkent moliya instituti,
“Moliya” kafedrası tayanch doktoranti,
Sardjanova D., TMI magistranti*

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH ORQALI ULARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim tizimi, uni moliyalashtirish tartibi bo'yicha qonunchilik asoslari va amalga oshirilayotgan islohotlar, talabalarning to'lov-kontrakt mablag'lari va ularning sarflanishi, oliy ta'lim muassasalari moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar aks ettirilgan.

Tayanch so'zlar

Ta'lim, oliy ta'lim, moliyalashtirish, byudjet, byudjetdan tashqari mablag'lar, to'lov-kontrakt, ish haqi, innovatsion xizmatlar, oliy ta'limni moliyalashtirish.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar qatorida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmonining 4-yo'nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” deb nomlangan bo'lib, uning 4-bandi aynan ta'lim va fanni rivojlantirishga bag'ishlangan. Ushbu farmonning ijrosini ta'minlash yuzasidan ta'lim muassasalariga bir qancha imtiyozlar ajratildi, ularni rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar, me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, ta'lim muassasalari o'qituvchi va tarbiyalovchilarning ish haqlari sezilarli darajada oshirildi. Bu tadbirlarning asosiy maqsadi, albatta mamlakatimizning barcha tarmoq va sohalarini zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal biladigan, axborot texnologiyalaridan keng foydalana oladigan va o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lgan kadrlar bilan ta'minlashdir.

Ta'lim tizimiga kiritilgan investitsiya eng samarali investitsiyalardan biri ekanligi hozirgi kunda hech kimga sir emas, biroq moliyaviy resurslarning cheklanganligini hisobga olgan holda har bir mablag'dan maksimal darajada samarali foydalanish hozirgi kundagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ta'lim tizimini, xususan oliy ta'lim tizimini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashni samarali tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. UNICEF hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni qamrab olish darajasi 97 foizni tashkil etsa, oliy ta'limda esa bu ko'rsatkich 15 foiz bo'lmoqda. Bu esa, mamlakatda har mngta kishiga 2 kishi talaba

bo'layotganligini anglatadi¹. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun bu ko'rsatkich anchagina past ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki oliy ma'lumotlilar rivojlanayotgan mamlatlarda band aholining 3 foiziga, sanoati rivojlangan mamlakatlar aholisining 2 foiziga teng bo'lib, innovatsion iqtisodiyotda ularning ulushi 60 foizni tashkil etmoqda, intellektual iqtisodiyotda esa ushbu ko'rsatkich 80 foizga teng bo'lishi lozim².

Shulardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmonida quyidagi vazifalar belgilangan:

✓ uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

✓ ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

✓ ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish va boshqalar³.

Bunday vazifalarni amalga oshirish albatta vaqt va katta mablag' talab etadi. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari asosan byudjet va byudjetdan tashqari manbalar hisobiga moliyalashtirib kelinmoqda. Byudjetdan tashqari mablag'larning asosiy manbasi esa shartnoma asosida o'quvchi talabalarning to'lov-kontrakt mablag'laridir.

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyatlarini tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlar qatorida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli, 2001-yil 17-avgustdagi "Oliy o'quv yurtlari talabalariga stipendiyalar to'lash tartibi va miqdorlari to'g'risida"gi 344-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 28-dekabrda "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 508-sonli, 2017-yil 16-oktyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sohalari bloklari va shakllari bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 18-2017-sonli buyrug'lari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining 2010-yil 20-avgustdagi "Bir talabani o'qitish xarajatlaridan kelib chiqib byudjet mablag'lari hisobiga oliy ta'lim muassasalarining xarajatlarini normativ rejalashtirish

¹ Raxmonov D. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari, Monografiya. –T.: "Fan va texnologiyalar", 2017, 248 bet.

² G'ulomov S., Ochilov I., Saydaxmedov O. Intellektual iqtisodiyotda samaradorlik omillari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali, 2015-yil 6-son, 38-41-betlar

³ O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonining 4.4-bandi

va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari kabi ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim tizimida, jumladan uni moliyalashtirish tizimida ham yangicha yondashuvlar, zamonaviy va innovatsion xizmatlarni joriy qilish davri keldi deb o'ylaymiz.

Bizga ma'lumki, oliy ta'lim muassasalari(OTM)ning eng katta daromadi bu to'lov kontrakt summasidan kelib tushgan mablag'lar bo'lsa, eng katta xarajatlari 1-guruh xarajatlariga, xususan talabalarning stipendiyasi va pedagog-xodimlarning mehnat ish haqlariga sarflanadi. Shunday ekan mazkur xarajatlarni to'g'ri hisoblash va oqilona taqsimlash har bir oliy ta'lim muassasalari uchun muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2018-2019 o'quv yilidan boshlab talabalarning to'lov kontrakt miqdori eng kam oylik ish haqiga bog'langan tarzda hisoblanishi belgilandi. Bunda oliy ta'lim muassasalari 5 ta toifaga ajratilgan bo'lib, 1-toifaga pedagogika, kasb ta'limi, matematika, psixologiya, sotsiologiya, sport va shu kabi yo'nalishlar kirsa, 2-toifaga sharq filologiyasi, jurnalistika va axborot, xizmat ko'rsatish va boshqa ta'lim yo'nalishlari, 3-toifaga san'at, arxitektura va boshqalar, 4-toifaga iqtisod, AKTda iqtisod va menejment, sog'liqni saqlash va boshqalar hamda 5-toifaga esa jahon siyosati, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy aloqalar, huquq va boshqa yo'nalishlar kiradi. Shularga mos ravishda to'lov kontrakt miqdori bakalalar uchun 1-toifaga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarda eng kam ish haqi (EKIH)ning 45 barobari, 2-toifa uchun 46 barobari, 3-toifa uchun 50 barobari, 4-toifa uchun 55 barobari va 5-toifa uchun esa 60 barobari qilib belgilangan.

Biroq aksariyat talabalar (ularning ota-onalari) tomonidan kontrakt summasining qimmatlashayotganligi tanqid ostiga olinayotgan bo'lsa, to'lanayotgan kontrakt summalari talabalarning o'qishini moliyalashtirishga yetmayotganligi oliy ta'lim muassasalarini havotirga solmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012-yil 28-dekabrda tasdiqlangan "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq talabalarning to'lov-kontrakt to'lovlari hisobiga kelib tushgan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarga sarflanishi belgilangan:

a) oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarishdan ajralgan holda kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalariga (xorijiy talabalardan tashqari) stipendiyalar to'lashga;

b) oliy ta'lim muassasalari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, shuningdek yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga;

c) oliy ta'lim muassasalarida bino va inshootlarni saqlash hamda kommunal xizmatlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga;

d) oliy ta'lim muassasasi Axborot-resurs markazi (kutubxona) fondini to'ldirishga va boshqalar.

Shuningdek, o'qitishning kontrakt shaklidan tushgan va vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'lar oliy ta'lim muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining

moliyaviy barqaror va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan banklarining depozit hisobvarag'lariga tanlov asosida joylashtirilishi mumkin⁴.

1-toifaga kiruvchi OTMlari (pedagogika, matematika, psixologiya) talabalarining 2018-2019 o'quv yili uchun to'lagan to'lov-kontrakt mablag'larining sarflanishini qisqacha tahlil qilib o'tsak. 2018-2019 o'quv yili uchun talaba o'quv yiliga jami 8,7 mln so'm (4-toifaga kiruvchi OTMlarda 10,6 mln)dan ko'proq to'lov kontrakt mablag'ini to'lagan. Agar talaba a'lo bahoga o'qib, 1,0 koeffitsientlik stipendiya olsa, o'quv yili davomida jami 8,1 mln so'mga yaqin stipendiya oladi, ya'ni kontrakt summasining 93%ga (4-toifa OTMlarda mos ravishda 76 %) yaqinini stipendiya sifatida qaytarib oladi. Agar talaba 0,75 koeffitsientlik stipendiya olsa, to'lov-kontrakt summasining 70,1 foiziga (4-toifa OTMlarda mos ravishda 58 %) yaqin va 0,5 koeffitsientlik stipendiyada esa 46 foizi (4-toifa OTMlarda mos ravishda 38%)dan ko'proq miqdorda stipendiya oladi.

Yuqoridagi hisob-kitoblarga tahlil qiladigan bo'lsak talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov-kontrakt summalari stipendiya va pedagog va boshqa institut xodimlarining ish haqlarigagina yetayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin (hattoki 1 va 2 toifaga kiruvchi OTMlarda bu mablag'lar yetmaydi). OTMlarining boshqa xarajatlari, jumladan binolarni saqlash, kommunal to'lovlar, kutubxonalarni yangi adabiyotlar bilan ta'minlash, texnika va texnologiyalar, mebel va jihozlarni xarid qilish va boshqalarni mablag' bilan ta'minlash hozirgi kunda OTMlar oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilar tarkibining ish haqi miqdori 2019-yil 1-iyuldan 25 foizga oshirilishi rejalashtirilgan⁵. Bu esa oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Bu boradagi dastlabki tadbirlardan biri sifatida 2019-yilning 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi (www.regulation.gov.uz) saytiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qaror loyihasi⁶ning joylashtirilishi bo'ldi. Ushbu qaror oliy ta'lim muassasalarida tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt summasini joriy qilinishi, qabul kvotasini shakllantirish hamda va moliyaviy mablag'larni boshqarishda mustaqillik berilishi qo'shimcha mablag'larni jalb qilishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda bevosita ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim sohasi bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib brogan A.Mingnat va J.Tanlar ta'lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirish darajasi mamlakatning rivojlanganlik darajasiga bog'liqligini aniqlashgan. Ularning fikricha, kam daromadli mamlakatlar tayanch ta'limga e'tibor qaratsalar, o'rtacha daromadli mamlakatlar asosan o'rta maxsus

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012-yil 28-dekabrda qabul qilingan "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 508-sonli buyrug'i (qisqartirilgan tarzda keltirildi).

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldagi "Fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3876-sonli qarori

⁶ <https://regulation.gov.uz/uz/document/2771>

ta'limni moliyalashtirishga ko'proq e'tibor qaratishadi. Yuqori daromadga ega bo'lgan davlatlar esa, oliy ta'limga jiddiy e'tibor qaratishadi⁷.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi va uni moliyalashtirishni takomillashtirish borasida amalga oshirilayotga isloxlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'larning ulushini oshirish lozim. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kredit tizimini joriy qilish;
- kontrakt summalarini oliy ta'lim muassasalari mustaqil belgilashini joriy qilish;
- kontrakt summalarini belgilashda OTMning ilmiy salohiyatini hisobga olish;
- o'qituvchilarning oyligini lavozim maoshiga qarab emas, natijaviylikka, ya'ni o'quv yili davomida bajargan ishlariga qarab belgilash;
- ta'lim jarayoniga xorijiy fuqarolarni keng jalb qilish, buning uchun OTM to'g'risidagi ma'lumotlarni va ta'lim xizmatlarini xorijiy davlatlarda keng qo'llaniladigan ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish, mashxur ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Twitter, LinkedIn ВКонтакте, Telegram, Instagram, WhatsApp va h.k.) o'zlarini o'zbek, rus va ingliz tillaridagi sahifalarini yaratish;
- oliy ta'lim muassasasini bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor shaxslarning homiylik xayriya mablag'larini jalb qilish va boshqalar.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy qilinishi oliy ta'lim muassasalari moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 07.02.2017

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3876-sonli qarori, 20.07.2018

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 508-sonli buyrug'i, 28.12.2012

4. Raxmonov D. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari, Monografiya. –T.: "Fan va texnologiyalar", 2017, 248 bet.

5. Alain Mingat, Jee-Peng Tan The Full Social Returns to Education: Estimates Based on Countries' Economic Growth Performance // Human Capital Development Working Paper 73. Word Bank, Washington, DC. 1996.

⁷ Alain Mingat, Jee-Peng Tan The Full Social Returns to Education: Estimates Based on Countries' Economic Growth Performance // Human Capital Development Working Paper 73. Word Bank, Washington, DC. 1996.

6. G'ulomov S., Ochilov I., Saydaxmedov O. Intellektual iqtisodiyotda samaradorlik omillari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali, 2015-yil 6-son, 38-41-betlar

7. <https://regulation.gov.uz/uz/document/2771>